

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

BITIRUVCHI

**QOBILOVA SITORA QOBIL QIZIning “ATOYI
G'AZALLARIDA TABIAT MANZARALARI TASVIRI”
mavzusida yozgan**

R E F E R A T I

Navoiy-2015

Mavzu: ATOYI G'AZALLARIDA TABIAT MANZARALARI TASVIRI

Ma'naviy-madaniy merosni tahlil va tadqiq etish, hozirgi adabiy jarayon hodisalarini tanqidiy o'rganish, o'zlashtirish, estetik baholash adabiyot ilmining asosini tashkil qiladi.

Ma'lumki, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy tizimlarning o'zgarishi, avvalo, dunyoqarashlarning o'rin almashuvidir. Bu, shubhasiz, yangi tushunchalar, talqinlar, tasavvurlar silsilasini yuzaga keltiradi. Inson va jamiyat munosabatlarini, ijtimoiy voqelikni yangicha idrok qilayotgan e'tiqodning shakllanishi, o'zligini namoyon etishi ham bu holatning tasdig'idir. Mustaqillik asnosida, umumbashariy qadriyatlarga tayangan, go'zallik-ezgulik-adolat tamoyillariga asoslangan adabiyot ilmi qaror topdi; adabiyotshunoslik ilmi yangi-yangi talqin va tahlil metodlari, usullari bilan o'z imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda, ildiz otib, palak yozmoqda. Bu borada, Prezidentimiz Islom Karimovning "Istiqlol va ma'naviyat", "YUksak ma'naviyat– yengilmas kuch", "Adabiyotga e'tibor–ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy, adabiy-estetik nazariy g'oyalar adabiyotshunosligimiz uchun ham metodologik asos vazifasini o'tamoqda.

Milliy adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiygacha bo'lgan davrda yetishib chiqqan ulkan so'z san'atkorlaridan biri Atoyidir. XIV asr oxiri- XV asrning birinchi yarmida yashagan Atoyiy yetuk zamondoshlari kabi badiiy ijodi bilan turkiy adabiyot va adabiy tili ravnaqiga hissa qo'shgan adiblardan biri sifatida e'tirof etiladi..

Shoir adabiy merosini ilmiy tadqiq etish borasida ilmiy tadqiqotlar o'tgan asrning boshlaridayoq amalga oshirila boshlangan. Bu borada Abdurauf Fitrat, H.Zaripov, E.Rustamov, N.Mallayev, A.Hayitmetov, I.Haqqulov, S.Rafiddinov singari olimlarning tadqiqotlari ana shular jumlasidandir. Bu ishlarda Atoyining hayoti va ijodiga doir ilmiy va nazariy qarashlar ilgari surilgan bo'lsa-da, faqatgina S.Rafiddinovning Atoyiy ijodiga doir tadqiqoti maxsus monografik tadqiqot hisoblanadi. Bu esa shoir merosining kam o'rganilganligini belgilaydi.

1-BOB. ATOYI LIRIKASIDA TABIAT TASVIRI

Adabiyotshunos O.Nosirov o'zining "O'zbek adabiyotida g'azal" nomli kitobida mumtoz she'riyatda obrazlilik va uning o'ziga xosligi haqida gapirib shunday ta'kidlaydi: "XIV asr oxiri XV asrning birinchi yarmida yaratilgan ko'pchilik g'azallarda mahbubaning tashqi qiyofasi tasviri beriladi"¹,—deydi. Bu fikrda ham haqiqat bor, albatta. Lekin, professor Abduqodir Hayitmetovga ko'ra she'rlarida yor go'zalligi tasvirlangan Lutfiy, Gadoiy, Atoyi, Sakkokiy kabi shoirlarning nomachi shoirlar she'riyatidan farqi shundaki, bular oshiqning tashqi, dardi-hasrati, orzu havaslari, intilishlari tasviriga tobora keng va jiddiy o'rin bera boshladi. SHu bilan birga xalq hayoti bilan bog'liq tasvirlar ham she'riyatda aks eta boshladi. Inson turmushi bilan bog'liq holatlar xalq maqollari, iboralari zamiriga singdirilgan poetik holatlarda aks ettirila boshlandi.

"Barcha bosqichlarda bo'lgani singari, Atoyi ham she'riy tafakkurning tiklanish bosqichlarida xalq og'zaki ijodiyoti va yozma adabiyotdagi mavjud adabiy an'analarga qattiq sungan,—deb yozadi adabiyotshunos I.Haqqulov.—SHoirning ko'p g'azallari uning o'zbek xalq og'zaki ijodi durdonalariga so'nmas mehr, kuchli ishtiyoq paydo qilganligi va ularga ijodiy yondoshganligidan dalolat beradi".²

Atoyi ijodida falakdan, davrdan, bevafo do'stu yordan, zamondan shikoyat ohanglari bor. Lekin ular goh-gohida g'azallar qatida ko'zga tashlanadi, xolos.

Atoiy g'azallarining xalq ijodiga yaqinligini belgilovchi xususiyat uning xalq maqollari va ta'birlaridan mahorat bilan foydalanishida ko'zga tashlanadi. SHoir xalq donishmandligining ifodasi bo'lgan maqollarga murojaat etish bilan o'z g'azallarining mazmunini ham, til va badiiyligini ham boyitgan. Adabiyotshunos olim T.Xo'jayev XV asr birinchi yarami o'zbek adabiyoti masalalariga bag'ishlangan maxsus tadqiqotida bu davr adabiyotiga xalq og'zaki ijodining ta'siri katta bo'lganini ta'kidlaydi: "O'sha davrda ham, bugungi kunda ham faol iste'molda bo'lgan iboralar ularning asarlarida nihoyatda keng ishlatilgan va ular misralariga shoirona mahorat bilan joylashtirilgan. Bu iboralarni mazmunan

¹ Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. Тошкент. 1987. 37-бет

² Ҳаққулов И. Шеърят—руҳий муносабат. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 55-бет

“ko’ngil”, “jon”, “qon”, “oh”, “yurak”, “ko’z”, “bag’ir”, “umr”, “tuz”, “oh”, “balo”, “qarg’ish” va boshqalar bilan bog’liq iboralar tarzida guruhlash mumkin.

Atoyida shunday bayt bor:

Har zamon chiqsang xiromon el ko’zi tushsa sanga,

G’ussadan ul dam Atoyining magar joni chiqar.

Odam hayajonlanganda, sevgilisiga bexos ko’zi tushganda yoki qahri kelganda yurakning bezovtalanishi, qattiq urishi, nafas olishining tezlashishi, yurak go’yoki og’iz tomon siljigandek tuyulishi tabiiy holat. Atoyining lirik qahramoni ham ma’shuqasiga “el ko’zi tushsa” ana shunday jo’nbushga keladi. Ma’shuqaning ko’zga ko’rinishi oshiq uchun g’ussa. Uning “joni chiqishi”ga olib keluvchi bu manzaraga bois, birinchidan, yorning go’zalligi va bu latofat oldida oshiqning esankirashi bo’lsa, ikkinchidan, ma’shuqa nigohiga raqibning boqishidir”. Ko’rinadiki, Atoyi g’azallarida qo’llanilgan bu kabi tasvirlar ham, iboralar ham juda xalqona, sodda, shu bilan birga badiiy vazifa bajarishda o’ziga xos ahamiyatga ega.

SHoir she’riyatida xalq hayoti bilan bog’liq manzaralar juda noziklik bilan g’azallar zahiriga singdiriladi. “O’qurlar” radifli g’azalida shoir xaloyiqning avrod o’qishini, ya’ni tilda xudoning nomini va duolarini hamisha takrorlab turishi kabi holatni oshiq tabiatiga ko’chiradi:

Meni ruxsoru zulfing zikru fikri,

Xaloyiq subhu shom avrod o’qurlar. (Devon,152-bet)

Ma’lumki, yozma badiiy adabiyot rivojida og’zaki adabiyotning o’rni benihoya katta. Xalq turmush manzaralarini maqol va iboralar orqali o’z fikrlarini ifodalagan. Atoyining ba’zi g’azallarda xalq maqollari aynan keltirilsa, ba’zilarida ularning mazmuni saqlangan holda shakl misralarga muvofiqlashtirilgan. SHoir yuksak san’atkorlik bilan ayrim g’azallarida bir emas, bir necha maqolni baytlar zahiriga singdirishga muvaffaq bo’lgan. Mumtoz adabiyotda **irsoli masal** degan she’riy san’at bor. Irsoli masal—she’rda xalq maqol va hikmatli iboralarini qo’llash,

poetik g'oya xizmatiga jalb qilish demakdir. Bu san'at shoir asarlariga alohida ruh bag'ishlaydi, ularning xalqchilligini oshiradi.³

Irsolu masal (ar.–maqol, masal keltirish)—mumtoz adabiyotdagi she'riy san'atlardan biri, she'rda ma'lum bir poetik maqsadda mashhur maqol, matal yoki hikmatli so'z keltirish. SHoir biror fikrni o'rta tashlar ekan, o'z fikrining isboti, izohi, tasdig'i uchun xalq maqollari, hikmatli iboralarni tamsil yo'li bilan keltiradi. Agar baytda ishlatilayotgan maqol yoki matallar soni ikki yoki undan ortiq bo'lsa, irsol ul-masalayn deyiladi. Masalan, Atoyining:

Bo'ldi bag'rim su g'amingdin, yaxshilik qil sol sug'a,

Oxir, ey gul, xirmanni albatta har ekkan o'rar. (Devon, 171-bet)

baytida “yaxshilik qil suvga ot” va “har kim ekanini o'radi” maqollari singdirib yuborilgan. Atoiy g'azallarida bu san'atdan keng foydalanadi.

YUz sori bo'ldi ravon ikki ko'zimdin jo'ybor,

Sarvi diljo'yum ne bo'ldi bir buyon qilsang guzor.

Sen o'shal sultoni husnsen, ki bo'stonlar aro,

Davlatindin gul eshigin yel ochibon yel yopor.

Bo'ldi bag'rim suv g'amingdin, yaxshilik qil, sol suvg'a,

Oxir ey gul, xirmanni, albatta, har ekkan o'ror.

Qildi jonimg'a meni shirin labing zavqi bale,

Bu masaldurkim, kishi bol tutsa, barmog'in yalor.

Davlatindin ko'kka yetdi barcha qullarning boshi,

Ushbu ne tole'dur, oyim, bizga yetsang tong otor?

Og'zingizni har necha so'rdum, tiladim topmadim,

³ Т.Бобоев. Шеър или таълими. Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти, 1998 йил, 189-бет

Go'yyo bu so'z g'alatdurkim, tilaganlar topor.

Zulfungizdin gar Atoyi boshqa ko'rsa na ajab,

Kim, ko'rarmen, bir sinog'onni yana ikki sinor.

G'azalning ikkinchi baytida xalq orasida keng tarqalgan *“eshigini yel ochib, yel yopadi”* degan xalq ta'biri qo'llanilgan bo'lsa, uchinchi baytda birdaniga ikkita maqol keltirilganki, bu bilan shoir bir tomondan o'zining yurak iztiroblarini yorqin ifodalaydi, ikkinchi tomondan, mahbubaga iltijo qilib, uni yaxshilik qilishga undaydi, yorning marhamatiga umid bog'laydi. Lirik qahramonning dil izhorida xalq maqoli juda qo'l kelgan.

Xalq orasida *“YAxshilik qil, suvga sol, suv bilmasa, baliq bilar, baliq bilmasa, xoliq bilar”*; *“YAxshilikni daryoga qil, biyobondan top”*, *“G'araz bilan qilingan yaxshilikning yomonlikdan farqi yo'q”* kabi maqollar keng tarqalgan. Bir donishmanddan: *“Nimani esda saqlab qolib, nimani unutmoq kerak?”*—deb so'rabdilar. U: *“Agar kishilar senga yaxshilik qilgan bo'lsalar – ularni unutma, agar sen birovga yaxshilik qilgan bo'lsang—unut”*, deb javob beribdi. *“Berganingni ozga sana, olganingni ko'pga sana”*; *“o'ng qo'ling bersin, chap qo'ling bilmasin”*; *“YAxshilik qil, uyingga aytma”* kabi maqol va hikmatlar ham xalqda bisyor.

Har qanday holatda ham beminnat yaxshilik qilaverish lozimligi haqidagi purhikmat fikr mazkur baytning ikkinchi misrasida *“har kim ekanini o'rar”* maqoli orqali yanadi rivojlantirilgan.

Atoiy xilma-xil xalq maqollarini baytlarga shu qadar ustalik bilan singdirib yuborganki, bu holat, birinchidan, shoirning ichki kechinmalarini yorqin ifodalashga xizmat qilsa, ikkinchidan, shoir o'z fikr-mulohazalarini qayta-qayta hayotda tasdiqlangan xalq so'zi—maqol orqali asoslaydi. To'rtinchi baytda keltirilgan *“kishi bol tutsa, barmog'ini yalor”* maqoli ham buning yorqin dalilidir.

SHuningdek, g'azalning keyingi baytlarida ham *“tilaganlar topar”*, *“bir sinag'anni yana ikki sinar”* kabi xalq ta'birlari ham g'azal ruhiga juda mos tushgan. Xullas, Atoiyning ushbu g'azali boshdan oyoq xalq maqollari asosiga

qurilgan bo'lib, ko'zlangan g'oyani ochishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Xalq og'zaki ijodi–maqol g'azal bilan shu qadar uyg'unlashib ketganki, misralardan ularni ajratib olish mushkul.

YUqorida kuzatganimizdan tashqari, shoirning boshqa g'azallarida ham xalq hikmatlariga qayta-qayta murojaat qilingan. Masalan:

G'animat tut jamolu husn davrin,
Masaldurkim, yana bu odam topilmas.

Raqibu zohid ohimdin kuyarlar,
Vale, o't kuydurur har xushku tarni.

Sevsa agar Atoiy raqibini ajab emas,
Kim, egasin og'izlar, itiga so'ngak solur.

La'lidin bag'ring qonin har dam Atoiy so'rmakim,
CHun arimas har nechakim, yuvsalar qon birla qon.

SHoir g'azallaridagi bu hodisani xalq og'zaki ijodining yozma adabiyot bilan mustahkam aloqasi, shoir qobiliyatining xalq tafakkuri bilan qo'shilishining o'ziga xos ko'rinishi, deb baholasak to'g'ri bo'ladi.

Atoiy she'rlari tarkibiga kiritilgan maqol va matallar ko'pincha o'tkir munosabat quroli bo'lib ham xizmat qiladi. Hatto unda «Sevsa agar Atoiy raqibin ajab ermas», degan ajablanarli bir gap ham aytiladi. Lekin oxirgi misrada berilgan maqol orqali, birinchidan, hech kutilmaganida raqibning ma'naviy qiyofasi fosh etiladi. Ikkinchidan, unga nisbatan oshiqning aniq munosabati ko'rsatiladi. Bunga o'xshash faktlar shoir ijodida oz emas.

Atoiy g'azallarida inson turmushi bilan bog'liq voqealar tasviri poetik obrazlilik orqali tasvirlanadiki, bunda lirik qahramonning ko'ngil kechinmalari, qalb manzaralari juda yorqin ranglarda tasvirlanadi:

Oy yuzing shavqinda tunlar to sahargoh o'lturub,

YONDURUB ko'z mash'alın, yoshtin quyarmen yog'lar. (Devon,146-bet)

Intizor oshiq sahargacha yorining oy yuzini qo'msab, uxlamay o'tirib chiqadi. U visol ilinjida barcha mashaqqatni tortishga tayyor. Tunning intihosi sahar bo'lganidek, hijronning oxiri visol bo'ladi. YOr diydoridan lazzatlanishga qattiq umid qilgan oshiq har qanday iztirobli damlarni boshidan kechirishga rozi. SHoir baytning birinchi misrasida lirik qahramon holatining umumiy ta'rifini, tashqi bayonini chizadi. Ikkinchi misrasida esa ruhiy, dardli holat manzarasini chizishga erishadi. Mash'alga qancha ko'p yog' quyilsa, u tunni shuncha ko'p ravshan qiladi. Oshiq ham ko'z mash'aliga go'yo ko'z yoshidan yog' quyib sahargacha tunni bedor o'tkazadi. YA'ni doimiy yig'i birinchidan, uni uxlashga imkon bermaydi, ikkinchidan, qorong'ida yo'lovchiga mash'al hamroh bo'lganidek, ko'z yoshi uning yagona hamdami, ovunchog'i.

Atoyi she'riyatida insoniy fazilatlar sifatida do'stlik tuyg'usi samimiy tasvirlanadi:

Sensiz bu jahon ayshi, alamdur mango, e do'st,
SHodlig'i ham mehnatu g'amdur mango, e do'st.

Lutфу karamingni sen agar mendan ayosang,
Javru sitaming lutфу karamdur manga, e do'st,

Ko'nglum yuzini javr ila chun sendin o'yurman,
Oxir nega javru sitamdur mango, e do'st...

Davr va hayot-ijodkor talant qudratini ta'minlaydigan bosh omil. SHuning uchun iste'dodli shoir yoki yozuvchi, u qaysi zamon va qanday xarakterdagi adabiy oqimning vakili bo'lishdan qat'iy nazar, birinchi navbatda, real hayot talablari bilan hisoblashadi, xal hayotining ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy masalalari ustida mushohada yuritib qalam tebratadi.

Atoyi xalq qo'shiqlarining soddaligi, ravonligi va musiqiyligidan ham ilhomlanadi. Professor N.Mallayev e'tirofiga ko'ra shoir g'azallaridan 109 tasi

“turkiy” deb nomlangan xalq qo’shiqlari vaznida yaratilganligidir.⁴ Darahaqiqat shoirning ko’pgina g’azallari xalq qo’shiqlariga xos bo’lgan jo’shqinlik, soddalik va ravonlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. SHoir g’azallari kitobxonlar va adabiyot ahllari orasidagina emas, balki sozandalar va hofizlar orasida ham shuhrat tutgan. SHunga ko’ra ham u:

Gar o’qur xonanda majlisda Atoyi she’rini,
Zuhra chang qo’bsor qilur shamsu qamar zavqu charoh (Devon, 132-bet)
degan edi. SHoirning deyarli har bir g’azali u yo bu shaklda xalq hayoti va inson qismati muammolariga bag’ishlangan.

2.2. Tabiat tasviri va u bilan bog’liq poetik obrazlar talqini

Atoyi falsafiy mushohadalari, lirik qahramonning ishqiy kechinmalarini tabiat bilan bog’liq holda tasvirlaydi. Uning juda ko’p g’azallarida tabiat bilan aloqador ruhiy kechinmalar, shoirona tasvirlar uchraydi. V.G.Belinskiy “Tabiat Gyote uchun g’oyalarning ochiq kitobi edi. Pushkin uchun eea u to’liq tavsifga sig’maydigan, ammo sokin va sehrli jonli surat edi...” deydi. Atoyi uchun ham tabiat ayniqsa, bahor va uning maftunkorligi ilhom manbai bo’lib xizmat qilgan. SHoirda tabiatdagi ba’zi narsalar poetik obraz va badiiy tasvir rolini o’tagan: bahorning so’limligi, gul, bulbul, g’uncha, mug’anniy, bo’ston, soqiy, sarv, bodi sabo, mayi gulgun, bog’, bog’cha, rayhon, sumbul, savsan, qizil gul, nargis kabi poetik obrazlar g’oyaviy-badiiy maqsadni to’la gavdalandirishga xizmat qilgan. SHoir bahor ko’rkini tasvirlar ekan, tabiat jonlanishidan tuyg’ulari junbushga keladi. CHor atrofdagi go’zallik uni zavqlantirib, visolga ishtiyoq uyg’otadi. Bulbul gul qoshida afg’on cheksa, u ham o’z yori bilan sirlashmoq, unga dil dardlarini izhor qilmoqqa yetkadi.

Atoyi lirikasida mavjud borliq, koinot va hayot, inson va uning shodligi, hasratu alamlari o’z aksini topgan. Bahor fasli, chaman sahni, gul isi va bulbul honishi unga zavq-shavq bag’ishlaydi. U go’zal tabiat qo’ynida do’stlari bilan birga bo’lishni, yorning visoliga va lutf-ehsoniga musharraf bo’lishni istaydi.

⁴ Н.Маллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1985. 357-бет

SHoir she'riyatida tabiat bilan bog'liq holatlar ko'plab kuzatiladi. Bahor–ko'rk va chiroy, tug'ilmoq va unmoq fasli, u yasharish fasli hamdir. Inson esa bularning hammasidan yanada ko'rkli va dilrabo. YOr–sevgi, hayot va insonga muhabbatning tajassumi. YOrsiz shoirga va bahorning ko'rki va na uning zavq-shavqi tatiydiki, bu holatni quyidagi misralarda ko'ramiz:

Vaslingiz umrum gulidur, shavqida men andalib,
YOz faslinda bo'lur–vaqti hazon sizsiz mango.

Men bu yuz mushtoqidurmen, bog'u bo'ston kim bo'lur?
Bo'lmasun nasrinu lola, arg'uvon sizsiz mango. (Devon, 36-bet)

SHoirning deyarli har bir g'azali hayotga, nafosat va muhabbatga tashnalik, olam va odamning mohiyat muammolariga bag'ishlangan. Mana u bir g'azalida nima deydi:

Kel, ey dilbar bo'ston vaqti bo'ldi,
Gul ochildi guliston vaqti bo'ldi. (Devon, 178-bet)

Zotan, bu vaqt, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, “hazoron nav’ alhon vaqti”, ming ohangda xonish qilish fursati. Demak, Atoyi she'riyati– tabiatdan, tabiatning inson ichki olamiga ta'sir etishga qodir go'zalliklaridan uzilib qolmagan she'riyat. Bu esa uning doimiy g'oyaviy qimmatini saqlab qoladigan eng muhim jihatlaridan yana biridir. Atoyi lirikasida bu da'voni dalillaydigan misollar ko'p. Bu haqda aniq tasavvur paydo qilish uchun quyidagi satrlarni keltirish o'rinli:

Soqiyo, keltur mayi gulgunki, xush damdur bukun,
Olami farxunda navro'zi olamdur bukun...

Er yuzinda gulshanu bog'i bahoru bog'cha,
Gunbazi hazro mengizlik sabzu xurramdur bukun...

Ey Atoyi, bo'lma g'ofil, bir nafas hamdam tila,
Umrni hamdam kechurmalik base kamdur bukun. (Devon, 132-bet)

Atoyi she'riyatida tabiatning go'zalliklarini ta'minlaydigan gul va o'simliklar nomlari keng qo'llanadi: naxl (nihol), sanubar (tik o'sadigan chiroyli daraxt), sunbul (gullari halqa-halqa bo'lib ochiladigan savansimon giyoh), sunbuli tar (shabnamli gul bargi), abir (anbar, xushbo'y hidli giyoh), arg'uvon (pushti gulli daraxt) va boshqalar. SHoirning ko'plab she'rlarida *gul* va *gulzor* bilan bog'liq poetik obrazlilik o'ziga xos tarzda ifoda etiladi:

G'uncha bo'ldim g'amdin ilkim doming'a yetmayin,

Gul bikin jon ko'nglaki g'asrat bila bo'ldi qabo. (Devon, 25-bet)

Devondan o'rin olgan mana bu g'azalda shoir tabiatning go'zal yaratishlari orqali lirik qahramonning ko'ngil kechinmalarini tasvirlaydi:

O'rtandi gul yuzin o'tidin lolazorlar,

YOlg'uz ne lola, balki angidek hazorlar.

Naxli qadingni ko'rsa chaman ichra sarvtek,

Bosh indurub tavoze' etarlar chinorlar. (Devon, 91-bet)

Ko'rinadiki, ma'shuqaning go'zallikka boy chiroyidan nafaqat lola va chamandagi lolazorlar, balki yorning sarvdek qaddi-qomatidan chinorlar ham "bosh indurub" ta'zim qiladi.

SHoir she'rlari orasida juda chiroyli bir g'azal bor. Bu g'azal borasida ko'plab fikrlar bildirilgan. Atoyining badiiy mahorati mahsuli bo'lgan bu g'azalda ham tabiat va inson, ularning o'zaro mushtarak jihatlari borasida fikr ifoda topadi:

Jamoling vasfini qildim chamanda,

Qizordi gul uyottin anjumanda. (Devon, 24-bet)

Baytni soddaroq yo'lda tahlil qilishga urinamiz. Baytda oshiq tilidan chamanda yorning jamolining vasfini-ta'rifini bayon etgani, (shunda) anjumanda, ya'ni chamanzordagi gul bundan uyalgan holatda qizarib ketganligi aytiladi. Bu bilan shoir: "Mening yorim juda ham chiroyli",—deyapti xolos. Ana shu oddiy fikrni shoirona badiiy ifodalamoqda. Bundan anglashiladiki, gullar yig'ini—anjumanda bir gul: "Dunyoda eng go'zal menman",—deya maqtanardi. Buning

ustiga kelib qolgan oshiq o'z ma'shuqasini ta'rifu tafsir qilgan edi, o'zidan bir necha marta go'zalroq jamol egasi borligini eshitgan gul maqtanchoqligidan sharmanda bo'lib, qizarib ketdi va shundan keyin dunyoda qizil gul paydo bo'ldi. SHoir gulni insonlardek jonli qilib tasvirlash orqali jonlantirish san'atini yaratadi. Bu tasvir vositasi mumtoz adabiyot ilmida tashxis (shaxslantirish) san'ati deb ham ataladi. Birgina mazkur baytda yana bir mumtoz she'riy san'at mavjud. Bu– husni ta'lil bo'lib, daxli bo'lmagan biror holatni chiroyli asoslash demakdir. YA'ni, gulning qizarishi uyatdan emas, u biologik hodisadir. SHoir buni badiiy topilma orqali asoslashga urinadi va o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi.

Atoiy she'riyatida gul va gulzor, chaman, tabiatning go'zal manzaralari aks etgan baytlar ko'plab uchraydi. Tahlil jarayonida shulardan ayrimlari xususida to'xtalamiz.

Lola– mumtoz adabiyotda ko'p uchraydigan an'anaviy badiiy obraz. Lola boshqa gullarga qaraganda Atoiy she'riyatida eng ko'p qo'llanilgan:

Lola o'xshatsa o'zin ruxsoriga ma'zur tut,

YOzida o'z boshig'a qo'rqondur ul ko'ngli qaro. (Devon, 25-bet)

Ma'lumki lolaning, ya'ni lolaqizg'aldoqning qora rangi boshida. Xalqimizda bu haqda shunday maqol ham bor: "Tunsiz kun yo'q, dog'siz–lola". Bu baytda shoir shunga ishora qiladiki, lolaning boshidagi qaro uning boshidagi balo desa, yana bir o'rinda:

Ey xijil gul orazingdin bo'stonu bog'lar,

Lola ruxsoring firoqi qo'ydi jong'a dog'lar.

Oy yuzung shavqinda tunlar to sahargah o'lturub,

YOndurub ko'z mash'alın, yoshtin quyarmen yog'lar.

Zulfunu qaddingni ko'rgach, bog'bon aytur ravon

"Gul yag'ochi ustida qo'nmish ajoyib zog'lar" (Devon, 63-bet)

Intizor oshiq to sahargacha yorining yuzini qumsab, uxlamay o'tirib chiqadi. U visol ilinjida barcha mashaqqatni tortishga tayyor. Tunning intihosi sahar

bo'lganidek, hijronning oxiri visol bo'ladi. YOr diydoridan lazzatlanishga qittiq umid qilgan oshiq har qanday iztirobli damlarni boshdan kechirishga rozi. Mash'alaga qancha ko'p yog' quyilsa, u tunni shuncha ko'p ravshan qiladi. Oshiq ham ko'z mash'aliga go'yo ko'z yoshidan yog' quyib, sahargacha tunni bedor o'tkazadi.

Lola obrazi Atoyining mana bu baytida ham qo'llangan:

YOd qilmas zulfu ruxsoru xatingni ko'rgali,

Lolau nasrinu sunbul birla rayxondin ko'ngul. (Devon, 142-bet)

YOKi yana bir o'rinda:

Bo vujudu orazing bargi sumandin kim desun?

Loladin kim so'zlasun, ham nastarindin kim desun? (Devon, 175-bet)

Lirik qahramon ma'shuqasining butun chiroyidan hatto chamandagi lola, nastarin kabi gullar rang olishini bayon etadi:

YUzingdin rang olur, nasrinu lola,

Ko'zingdin munfail yuz ming g'azola.

Tabussum aylakim, bisyor xushtur,

CHamanda g'unchayi xandonu jola. (Devon, 214-bet)

G'azallar tahlili jarayonida gul bilan bog'liq tasvirlar ham ko'plab uchrashiga guvoh bo'ldik va bu poetik obraz ham lirik qahramonning tuyg'u kechinmalari, uning ta'riflanayotgan go'zal ma'shuqasining holati va tasvirini berishda ayniqsa qo'l kelgan:

G'uncha bo'ldum g'amdin ilkim doming'a yetmayin,

Gul bikin jon ko'nglaki hasrat bila bo'ldi qabo (Devon, 25-bet)

Gul, g'uncha tasvirini yana quyidagi baytlarda ham uchratamiz:

G'uncha sevunib to'nig'a sig'mas,

O'xshatsam o'qung bashoqi birla (Devon, 26-bet)

YAna:

Har xasta dilkim, ul yuzi tulun oyo boqar,

To'y mas ko'zi, kuyar tanu joni yano boqar.

Topmas yuzi guli kabi ranginu obdo,

Bog'u chamanda har necha bodi sabo boqar. (Devon, 58-bet)

YOhud manu bu bayt orqali Atoyining badiiy mahoratiga yana bir bor guvoh bo'lamiz:

Yig'lab yuzunguzdin olayin zulfi niqobin,

Gul yaxshi ochilmas kechalar yog'masa yomg'ur. (84)

Adabiyot–insonshunoslik fani. Inson va uning o'y-kechinmalari, inson va olam muammolari adabiyotning domiy dolzarb masalasi sanalgan. Insonni ulug'lash, undagi yuksak va oliyjanob sifatlarning qadrini bilish, ularga e'tiqod bog'lash bilan belgilanadi.

“Devon”dan o'rin olgan tabiat olami tasviriga bag'ishlangan g'azallardan birida shoir lirik qahramon o'yu kechinmalarini kuzning xazoniyu, ko'klam tarovatiga qiyoslagan holda bir-biriga qarshilantiradi:

Xazondek ayladi baxtim, bu yil fasli bahorimni,

Ki hijrong'a mubaddal qildi nogah, vasli yorimni.(Devon, 255-bet)

SHoir g'azallarida joy nomlari bilan bog'liq o'rinlar ko'plab ko'zga tashlanadi. Bu orqali mumtoz she'riyatdagi talmeh san'ati qurilgan bo'lb, Atoyi lirik qahramon ruhiy va ma'naviy olamini ochib berishda undan o'rinli foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. T.Boboyev SHE'r ilmi ta'limi. Toshkent,: “O'qituvchi” nashriyoti, 1996. 268-B.
2. A.Hojiaxmedov. SHE'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent, 2003. 176-B.
3. Adabiyot (7-sinf uchun darslik)- Toshkent, “O'qituvchi”, 2007. 321-B.
4. Adabiyot (10- sinf uchun darslik)-Toshkent, “O'qituvchi”, 2007. 359-B.
5. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun majmua). 1-kitob. Toshkent, 2010.215-B.
6. R.Vohidov, H. Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasi. Buxoro, 2001.150-B.

7. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. Toshkent, "O'zbekiston" 1990. 224-B.
8. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, "Fan", 2004. 185-B.
9. Jo'rayev H. Alisher Navoiy lirikasida voqelik va uning poetik talqinlari. /Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati/ Toshkent, 2008. 44-B.
10. Jumaxo'ja N. Satrlar silsilasidagi seyr. Toshkent, "O'qituvchi", 1996. 223-B.
11. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. Toshkent, "Fan". 1961. 278-B.
12. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Toshkent, "Fan", 1997. 186-B.